

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH FAOLIYATI
XUSUSIYATLARI

Qodirova Nargiza Raxmatillo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ОСОБЕННОСТИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Кадирова Наргиза Рахматилло кизи
Преподаватель Андижанского государственного педагогического института

CHARACTERISTICS OF COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN

Qodirova Nargiza Rakhmatillo kizi
Teacher of Andijan State Pedagogical Institute

Annotasiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarining yoshga xos xususiyatlari ochib berilib, bilish faoliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyatining yetakchi o'rni asoslangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali pedagogik yondashuvlar bo'yicha xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha yosh, bilish faoliyati, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, o'yin faoliyati, pedagogik yondashuvlar, maktabgacha ta'lim.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы психолого-педагогические факторы, влияющие на формирование и развитие познавательной деятельности у детей дошкольного возраста. В ходе исследования выявлены возрастные особенности процессов восприятия, внимания, памяти, мышления и речи, обоснована ведущая роль игровой деятельности в развитии познавательной деятельности. Также приводятся выводы об эффективных педагогических подходах, которые можно применять в дошкольном образовании.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, познавательная деятельность, восприятие, внимание, память, мышление, речь, игровая деятельность, педагогические подходы, дошкольное воспитание.*

Annotation: *This article analyzes psychological and pedagogical factors affecting the formation and development of cognitive activity in preschool children. In the process of research, age-specific features of the processes of perception, attention, memory, thinking and speech are revealed, based on the leading role of game activity in the development of cognitive activity. Conclusions are also drawn on effective pedagogical approaches that can be applied in the process of preschool education.*

Keywords: *preschool age, cognitive activity, perception, attention, memory, thinking, Speech, game activity, pedagogical approaches, preschool education.*

Maktabgacha yosh davri bolalar psixologik rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda psixik jarayonlar, shaxsiy xususiyatlar hamda bilish faoliyati jadal shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson hayoti davomida oladigan axborotning qariyb 70 foizi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bilish jarayonlariga sezgi va idrok, diqqat, xotira, tafakkur hamda nutq kiradi. Sezgi va idrok jarayonlari orqali bolalar ranglar, shakllar, o'lchamlar va geometrik figuralarni farqlashni o'rganadilar. Ushbu jarayonlarning rivojlanishi kattalar bilan muloqot va turli faoliyatlar orqali amalga oshadi.

Diqqat bu yoshda asosan beqaror bo'lib, uni rivojlantirishda o'yin faoliyati, rasm chizish, qurish va konstruktiv mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xotira jarayonida esa obrazli va qisqa muddatli xotira ustunlik qiladi. Bolalarning ertaklarni qayta-qayta tinglashga bo'lgan qiziqishi xotiraning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tafakkur konkret obrazlar asosida rivojlanib, nutq jarayoni ijtimoiy muhit va muloqot ta'sirida jadal shakllanadi. Bolalar o'z fikrlarini og'zaki ifodalashni o'rganish jarayonida tafakkur faoliyatini yanada rivojlantiradilar.

Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o'ziga xos tarzda o'zgartiradi. Kattalar avvalgidek yetakchi o'rin tutsada, bola o'z amaliy hayotining tor muhiti va u qadar katta bo'lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishga intiladi.

Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o'zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabgacha yoshda sensor idrok, ayniqsa, ko'rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bola ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi.

U unga qanday sur'at yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Biroq u hali musiqani to'liq va differensiyalangan holda qabul qilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishida bu yoshning asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblangan o'yin juda muhim ahamiyatga ega. O'yin o'zining barcha tur va ko'rinishlarida (syujetli, rolly, qoidali, nutqiy, badiiy, musiqiy va boshqalar) bolaning jismoniy, eshitish, aqliy, estetik rivojlanishiga faol yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi ijtimoiy vaziyati xususiyatlari unga xos bo'lgan faoliyat turlari, ayniqsa, syujetli-rolly o'yinlarda aks etadi. Zarur bilim va qobiliyatlarsiz kattalar dunyosiga yaqinlashishga urinish bolani uning uchun imkoni bo'lgan o'yin shakliga olib keladi. Bola rivojlanishi uchun maktabgacha muassasalar tizimi, ayniqsa, bog'cha yaxshi sharoit yaratadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, psixik rivojlanish va maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasi bolalar bog'chasida tarbiyalangan bolalarda bog'chaga bormaydigan bolalarga nisbatan yuqori.

O'quv faoliyatining mazmunini ilmiy tushunchalar, fan qonuniyatlari va ularga tayangan amaliy masalalarni hal etish uslubi tashkil etadi. Shunday qilib o'qish – bu bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishga yo'naltirilgan jarayon. O'quv faoliyati aniq bir

tuzilishga ega. Uning tarkibiy qismlari quyidagilar: 1) o'qish vaziyati (yoki vazifalari), 2) o'qish harakati, 3) nazorat, 4) baho.

Maktabgacha ta'lim xayotining ko'p qirrali va sermazmunligi 6 yoshli bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga hamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa asosiy bilish jarayonlari bo'lgan idrok, tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yuboradi. Maktabgacha ta'limgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu jarayonlar ularning o'yin yoki biron amaliy faoliyatlari bilan birga namoyon bo'ladi.

Masalan, kichik yoshdagi bolalar biron narsa bilan mashg'ul bo'lib turganlarida uni idrok qiladilar, ilgari ham shu narsa bilan mashg'ul bo'lganlarini eslaydilar va uni analiz va sintez qilib ko'radilar.

Bilish faoliyatini rivojlantirish uchun bolalarga turli o'yinlar, qurish, modellashtirish, rasm chizish, hikoya qilish kabi mashg'ulotlar taklif etilishi lozim. Kattalar tomonidan beriladigan ijobiy emotsional munosabat va muloqot bolalarning psixik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Aqliy faoliyatni, tushunishni qo'llab-quvvatlamasdan, har qanday bilimni assimilyatsiya qilish umuman mumkin emas va sog'lom bola uchun g'ayritabiiydir. Shuning uchun xotirani rivojlantirishda hissiy xotiraga ko'proq e'tibor qaratish va bolaga yaxshi eslab qolishga yordam beradigan turli xil usullarni ko'rsatish juda muhimdir.

Bir qator olimlar kognitiv faoliyatni ta'lim olivchilarning "O'rganishga bo'lgan tabiiy moyilligi" deb hisoblab, o'rganishga intilish insonga xosligini ta'kidlashadi. Bu bolalarning ilk kunlaridanoq namoyon bo'ladigan jarayondir.

Ba'zi pedagog olimlar kognitiv faoliyatni shaxsiy xususiyat sifatida tushunishadi. G.I.Tshukina mazkur atamani "shaxsning bilimga bo'lgan intilishini o'z ichiga olgan, bilish jarayoniga intellektual munosabatni ifodalavchi shaxsiy xususiyat" deb ta'riflaydi.

G.Berdaliyevaning fikricha, rasm asosida kichik hikoyalar yaratish jarayonida bolalar mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va uni rivojlantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshirishi mumkin: tasvirlangan holatga qadar bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikrlar va mulohazalar; rasmdagi holat va unga munosabat; tasvirning davomi haqida bolalarning tasavvuri va mustaqil bayoni. Olimaning ta'kidlashicha, bu bolalarning mushohada doirasi va dunyoqarashini, tasavvurini kengaytiradi.

O'yin orqali u boshqalar bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi, dunyoni o'rganadi va qoidalarga bo'ysunish tufayli xatti-harakatlarning o'zboshimchaligi rivojlanadi.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi

muhim xislatlarni oʻstirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi boʻlgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga oʻrganadilar.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan boʻladigan munosabatlarida anchagina oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola bogʻcha yoshiga yetgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod boʻlib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan boʻlgan munosabatlari murakkab, koʻp tomonlama harakter kasb eta boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo boʻladigan hilma-xil extiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi hisoblanadi. Maʼlumki, ilk yoshdagi bolalarda asosan organik ehtiyojlarlar mavjud boʻladi. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari, atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan extiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir.

Maktabgacha yosh davri bolalarda bilish faoliyatining shakllanishi uchun asos boʻlib xizmat qiluvchi muhim rivojlanish bosqichidir. Ushbu davrda sezgi va idrok, diqqat, xotira, tafakkur hamda nutq jarayonlari oʻzaro bogʻliq holda rivojlanib, bolaning keyingi taʼlim bosqichlariga tayyorgarligini taʼminlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, bilish jarayonlarini rivojlantirishda oʻyin faoliyatiga asoslangan taʼlim, faol muloqot va maqsadga yoʻnaltirilgan pedagogik taʼsir muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarbiyachilarning bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda taʼlim jarayonini tashkil etishi bilish faoliyatining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdaliyeva G.A. Maktabgacha taʼlim muassasalari nutq oʻstirish mashgʻulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish metodikasini takomillashtirish // ped.f.b.f.d ilmiy darajasini olish uchun diss.avtoreferati. Toshkent: MTMRMQTMOI, 2019. 48-bet. <https://library.ziynet.uz/uz/book/107832>.
2. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2004.
3. Kipchakova Y. METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 2021.
4. Muxina V.S. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2005.
5. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Usmonova M.B. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020.

7. Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Издательство Педагогика, 1988.